

**“YANGILANGAN KONSTITUTSIYMIZDA SHAXS VA DAVLAT
MANFAATLARINING O'ZARO MUSHTARAKLIGI”****Sultanova Niyozjon Ergashbay qizi***Xorazm viloyati Yuridik texnikumi o'qituvchisi***Shonazarova Shohista Davronbek qizi***Xorazm viloyati Yuridik texnikumi 24-01guruh o'quvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yangilangan Konstitutsiyamizda shaxs va davlat manfaatlarining o'zaro mushtarakligining huquqiy asoslari va tamoyillari tahlil qilingan. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va davlat boshqaruvini yanada samarali qilish maqsadida ishlab chiqilganligi ta'kidlangan. Shaxsning erkinliklari va davlat barqarorligi, o'zaro munosabatlarda huquq va majburiyatlarning mushtarakligi o'rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda ular ishtirokini kengaytirish tamoyillari va huquqiy jihatlari yoritilgan. Ushbu tamoyillar yangilangan Konstitutsiyamizning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Kalit so'zlari: Konstitutsiya, shaxs manfaatlari, davlat manfaatlari, huquq va erkinliklar, shaxs va davlat mushtarakligi, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy islohotlar, ijtimoiy adolat, normativ-huquqiy hujjatlar, demokratik davlat.

Аннотация: В статье анализируются правовые основы и принципы взаимности интересов личности и государство в нашей обновленной Конституции. Акцент делается на сохранении баланса между свободами личности и стабильностью государства, взаимными и обязанностями. В статье также освещены принципы и правовые аспекты развития взаимного сотрудничества личности и государства, обеспечения прав и интересов граждан и расширения их участия.

Ключевые слова: Конституция, личные и государственные интересы, права и свобода, общинность личности, социальная стабильность, правовые реформы, социальная справедливость, нормативные правовые документы, демократическое государство.

Annotation: This article analyzes the legal bases and principles of the mutuality of interests of the individual and the state in our updated Constitution. Emphasis is placed on maintaining a balance between individual freedoms and state stability, mutual rights and obligations. The article also covers the principles and legal development of mutual cooperation between the individual and the state, ensuring the rights and interests of citizens and expanding their participation.

Keywords: *Constitution, personal interests, state interests, rights and freedoms, individual and state commonality, social stability, legal reforms, social justice, regulatory legal documents, democrats state.*

Mamlakatimizda Konstitutsiya yuksak siyosiy nufuz va oliy yuridik kuchga ega. Konstitutsiya nafaqat qonunchilik tizimining cho'qqisida turadi, balki butun qonunchilik majmuining asosiy poydevorini tashkil etadi. Konstitutsiya uning prinsiplari va barcha qoidalari qonunchilik shakllanishi hamda rivojlanishi uchun yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etadi. Asosiy qonun mamlakatimizda amal qiluvchi obyektiv huquqning bosh manbaidir. U qonunchilik turli tarmoqlarining mushtarakligini, bir butunligini va o'zaro ichki muvofiqligini ta'minlaydi. Konstitutsiya inson va fuqaroning huquqlari hamda erkinliklari mustahkamlanganligi, ularning dunyo standartlari, xalqaro huquq tamoyillariga to'la mosligi etirof etiladi. To'g'ridan to'g'ri shaxs va davlat munosabatlarida o'zaro huquq va majburiyatlar mushtarakligini shakllantiradi. Shaxs va davlat manfaatlarini mushtarakligi-bu davlat va fuqaroning manfaatlarini bir-birini to'ldiradigan, ular o'rtasida uyg'unlikka erishilgan holatdir. Bu tushuncha davlatning fuqarolar faravonligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash orqali manfaatlarini himoya qilishi, shuningdek, fuqarolarning davlat qonunlariga rioya qilish va o'z burchlarini bajarish orqali mustahkamlashga hissa qo'shishi kabi o'zaro aloqalarni o'z ichiga oladi. Yangilangan Konstitutsiyamizda shaxs va davlat manfaatlarining o'zaro mushtarakligining asosiy tamoyillari:

Shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini kafoltnash, asosan, davlat shaxsning qadriyatini, huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida etirof etadi. Shaxsning ta'lim olish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik kabi, asosiy ehtiyojlarini ta'minlash davlatning burchi hisoblanadi.

Davlat manfaatlarini himoya qilish davlat fuqarolardan o'z qonunlari va qoidalari rioya qilishni ta'lab qiladi. Bu qonunlar fuqarolarning o'zaro tinch-totuv yashashida, iqtisodiy fuqarolikka va umumiy faravonlikka xizmat qiladi. Fuqarolarning burchlari masalan, soliq to'lash, harbiy xizmatni bajarish davlat manfaatlarini ta'minlash uchun zarur. Shaxs va davlat o'zaro manfaatlarini mushtarakligini saqlash uchun javobgarlikni bo'lishadi. Davlat huquqlarni kafolatlaydi, shaxs esa belgilangan burchlarni bajaradi. Masalan, davlat ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Shaxs esa ta'lim olishga intilib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Konstitutsiya barcha shaxslar qonun oldida tengligini kafolatlaydi. Yangilangan Konstitutsiya shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarning mushtarakligining asosi adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Buni amaliy misol bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Fuqarolar tomonidan soliq to'lash orqali davlatning infratuzilmasi rivojlanadi, sog'liqni saqlash, ta'lim va xavfsizlik kabi xizmatlar ta'minlanadi. Bu davlat va shaxs manfaatlarining mushtarakligini yaqqol ko'rsatadi.

Binobarin, huquqiy himoya ham kafolatlanadi. Davlat fuqarolarni noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qiladi, fuqarolar esa davlat qonunlariga rioya qilish orqali huquqiy tartibni saqlashga yoram beradi. Xususan, bu mushtaraklik jamiyatning barqarorligi va

rivoji uchun muhim bo‘lgan o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Shu boisdan, yangilangan Konstitutsiyamizda shaxs va davlat manfaatlarining mushtarakligi masalasi mamlakatimizning xalq bilan o‘zaro uzviy munosabatlarini mustahkamlaydi.

Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, Konstitutsiya jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan demokratik islahotlarining strategiyasi, mafkurasi va dasturi bo‘lib maydonga chiqadi. Shaxs va davlat manfaatlarining mushtarakligi asoslari O‘zbekiston Respublikasining bir qator hujjatlarida aks etgan. 2023-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi davlatning xalq oldidagi mas‘uliyat darajasini bir necha baravar oshirdi. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 8-maydagi 67-sonli prezident farmoniga ko‘ra yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarning yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta‘minlash maqsadida asosiy vazifalarini belgilab berdi.

Aynan O‘zbekiston keljagi yoshlariga yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa qo‘llanmalar tayyorlash bo‘yicha ilmiy-metodik chora tadbirlari muvofiqlashtirildi. Xususan, “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘risida”gi 2023-yil 7-noyabrdagi 188-sonli Prezidenti Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga belgilangan tartibga muvofiq ularni yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-maydagi 788-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari va davlat xizmatidagi majburiyatlarini muvofiqlashtirish masalalarini tartibga soladi.

2022-yil 17-mart PF-89-sonli “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda Adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni mamlakatimizda adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, shu jumladan, aholining huquqiy muamolarini hal etishda Aliya organlarining roli va mas‘uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida belgilangan dasturlar amalga kiritildi. Yangilangan Konstitutsiyamizning mazmuni va normalari hamda shu asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar shaxs va davlat munosabatlarining uyg‘unligini asos qilib belgiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiya yangi O‘zbekiston kelajagi va fuqarolarning rivojlanib borayotgan jamiyatda va siyosiy qatlamda o‘zaro huquq va majburiyatlari mushtarak bog‘liqligini kelgusidagi mamlakatimizning

xaqaro standartlariga to'la mosligi asosini yaratibgina qolmay, butun jamiyat ahliga havola etadi.

Ma'lumki, Konstitutsiyaning har bir moddasi muayyan ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-huquqiy ma'noni o'zida mujjasam etadi. Shunga ko'ra, bizning Konstitutsiyamiz umuminsoniy g'oyalar-tenglik, erkinlik, birdarlik, xalqlar va millatlararo do'slik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug' g'oyalarga xizmat qiladi. Eng asosiysi, o'z xalqining manfaatlarini, huquq va erkinliklarini adolatli ta'minlashni oliy maqsad qilib belgilaydi. Aynan mana shu huquqiy jihatlar bilan yangi Konstitutsiyamiz o'zbek xalqiga taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz taqdirida muxrlanib qoladigan davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlovchi va millat ravnaqiga xizmat qiluvchi tarixiy hujjat ekanligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (30.04.2023)

2. O'zbekiston Respublikasi 2023-yildagi 8-maydagi 67-sonli "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 7-noyabrdagi 188-sonli "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Prezident farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 8-maydagi 788-sonli "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun.

5. O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 17-mart 89-sonli "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati amaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'risida"gi Prezident farmoni.